



**KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUVCHILARIDA IJTIMOYIY-
HUQUQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
MEXANIZIMLARI**

Zulxaydarova Feruza Umarali qizi
TIQXMMI MTU Tayanch doktoronti

Annatatsiya

Ushbu maqolada kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsning huquqiy ongi, ijtimoiy mas'uliyati hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning huquqiy bilimlari, ijtimoiy faolligi va motivatsiyasi o'rganilib, pedagogik ta'sir, ijtimoiy muhit hamda psixologik yondashuvlar orqali ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, shaxsiy kamolotini qo'llab-quvvatlash va ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlashga xizmat qiladi

Kalit so'zlar: *Kasbiy ta'lim, ijtimoiy-huquqiy kompetentlik, huquqiy ong, shaxsiy rivojlanish, psixologik mexanizmlar, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas'uliyati, motivatsiya, pedagogik yondashuv, huquqiy tarbiya, falsafiy dunyoqarash, texnologiyalar, sun'iy intellect.*

Jamiyat taraqqiyoti, demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishi va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi yosh avlodning huquqiy madaniyati hamda ijtimoiy faolligiga bevosita bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

Ijtimoiy-huquqiy kompetentlik shaxsning huquqiy bilimga ega bo'lishi, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi va fuqarolik mas'uliyatini anglab yetishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur kompetentlik o'quvchilarning jamiyatdagi huquqiy me'yorlarni anglash, ularga amal qilish va ijtimoiy mas'uliyatni his etish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi [2].

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari quydagilardan iborat.

Motivatsiya mexanizmi – o'quvchilarning huquqiy bilimlarni o'rganishga ichki va tashqi intilishlarini shakllantirish.

Qabul qilish va idrok mexanizmi – huquqiy ma'lumotlarni anglash, tahlil qilish va ijtimoiy kontekstda tushunish.

Xulq-atvor mexanizmi – huquqiy bilimlarni amaliy hayotda qo'llash va qonuniy xatti-harakatlarni odatga aylantirish.

Ijtimoiy ta'sir mexanizmi – o'quvchilarning ijtimoiy muhit, guruh va o'qituvchi ta'siri orqali huquqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



O'z-o'zini baholash va nazorat mexanizmi – o'quvchilar o'z huquqiy bilim va xulqini baholab, o'zini tuzatishga qodir bo'lishi.

Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni motivatsiya, pedagogik ta'sir, ijtimoiy muhit va shaxsiy rivojlanish kabi psixologik omillar bilan chambarchas bog'liqdir [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha muhim ustuvor vazifalar belgilangan.

Shu sababli kasbiy ta'lim tizimida ushbu kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega. [4].

Kasb ta'limi o'qituvchilarini tizimli yondashuv asosida tayyorlash muammosi Sh.H.Quliyevaning tadqiqotlarida o'z aksini topgan shunday qilib, kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini shakllantirish evolyutsion yo'l bilan amalga oshadi.

Bu jarayon kasbiy faoliyat ahamiyatini anglash, huquqning ushbu tizimdagi o'rnini tushunishdan boshlanib, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar tizimi orqali refleksiya (o'zini tahlil qilish) va o'z-o'zini rivojlantirish bosqichlariga qadar kechadi.[5].

Umuman olganda, pedagogik, psixologik, falsafiy, ilmiy, ijtimoiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari natijasida quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha pedagogik shart-sharoitlar yetarli darajada ta'minlanmaganligi sababli tashkiliy-pedagogik, pedagogik, psixologik, uslubiy-didaktik shart-sharoitlar aniqlashtirilishi kerak.[6].

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha pedagogik modellar ishlab chiqilgan bo'lsada, uning komponentlari tarkibida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlari singdirilishi lozim.[7].

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda ilg'or xorijiy tajribalarga tayanish hamda ijtimoiy sohaning dolzarb muammolari inobatga olinishi lozim .

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlanganlik darajalarini aniqlash va baholashda matematik apparatni pedagogik va dasturiy apparatga muvofiqligini ta'limlash, baholash mezonlarini ishlab chiqishda statistik hisobotlarni raqamlashtirish lozim.

Psixologik-pedagogik mexanizm ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida yetakchi o'rin egallaydi.

Ushbu mexanizm pedagogik ta'sir va ijtimoiy muhit omillarining o'zaro uyg'unligi asosida o'quvchilarning shaxsiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi.



Psixologik-pedagogik mexanizm o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy sifatlarini o'z kasblarini malakali mutaxasisi bo'lib rivojlantirishni kvaziprofessional va hayotiy vaziyatlar orqali ta'minlaydi.[8].

Ushbu mexanizm doirasida o'quvchilarning intellektual faolligini qo'llab-quvvatlash, ularni huquqiy bilimlarni ongli ravishda qo'llashga yo'naltirish, kasbiy xulq-atvor namunalarini kuzatish va tahlil qilish orqali ijtimoiy-huquqiy tafakkurni rivojlantirish psixologik dunyoqarashi va aniq maqsad yetuk kasbining egasi bo'lishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish psixologik mexanizmlar orqali samarali amalga oshiriladi.

Shaxsiy motivatsiya, pedagogik ta'sir, ijtimoiy muhit hamda psixologik yondashuvlar o'zaro uyg'un holda qo'llanilganda o'quvchilarning huquqiy madaniyati va fuqarolik faolligi sezilarli darajada oshadi.

Shu bois pedagogik jarayonda interaktiv metodlardan foydalanish, jamoaviy faoliyatni rivojlantirish hamda huquqiy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan integratsiyalash muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanboyeva O. Pedagogika. Toshkent, 2015.
2. To'xtaxodjaeva M. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2010.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent, 2004.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида Касбий малакалар, билим ва куникмаларни ривожлантириш миллий тизими фаолиятини ташкил этиш чоралари тўғрисида” 2020 йил 15 майдаги 287-сон қарори <https://lex.uz/docs>
5. Raven J. Kompetentnost v sovremennom obshchestve: vyyavlenie, razvitie i realizatsiya. – Moskva: Kogito-Centr, 2002.
6. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi. – Toshkent: Fan, 2004.
7. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers. – Paris: UNESCO, 2021
8. Deci E., Ryan R. Intrinsic and Extrinsic Motivation. Academic Press, 2000.